



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 2-iyul

319-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer qa‘ridan foydalanish, sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi hamda atom energiyasidan foydalanish sohalarida davlat boshqaruvi va nazorati tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 24-maydagi PF-79-son Farmoni ijrosi haqida”gi 284-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer qa‘ridan foydalanish, sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi hamda atom energiyasidan foydalanish sohalarida davlat boshqaruvi va nazorati tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 24-maydagi PF-79-son Farmoni hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-iyundagi 284-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 27-iyundagi 284-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni bilan:

Vazirlar Mahkamasi, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Energetika vazirligining:

a) Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi negizida:

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo‘mitasini (keyingi o‘rinlarda - Qo‘mita);

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasini nazorat qilish inspeksiyasini (keyingi o‘rinlarda - Inspeksiya);

b) Energetika vazirligi huzuridagi Atom energetikasini rivojlantirish agentligi negizida Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atom energiyasi agentligini (keyingi o‘rinlarda - Agentlik) tashkil etish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilganligi;

Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog‘-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi funksiyalari va shtat birliklarini taqsimlash tartibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha:

Qo'mita atom energetikasi va yadro texnologiyalari obyektlarida radiatsiya va yadro xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, xavfli ishlab chiqarish obyektlarida sanoat xavfsizligi sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish va muvofiqlashtirish bo'yicha vakolatli respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanishi;

Agentlik atom energiyasidan tinchlik maqsadlarida foydalanish sohasida davlat siyosatini amalga oshiruvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanishi;

Inspeksiya yer qa'ridan foydalanish va muhofaza qilish sohasida davlat nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi respublika ijro etuvchi hokimiyat organi hisoblanishi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 2-ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari 3-ilovaga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanganligi e'tiborga olinsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilishni tuman hokimining o'rinbosari X.Boylarov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



N.Xudoyberdiyev